



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 21-oktabr

565-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyat hokimining 2024 yil 15 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-oktabrdagi 645-son qarori ijrosi haqida”gi 480-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktabrdagi 645-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 15 oktyabrdagi 480-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024 yil 15 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 7-oktabrdagi 645-son qarori ijrosi haqida”gi 480-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 7 oktyabrdagi 645-sonli qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq; O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi to‘g‘risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirishi departamenti to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligida xorijiy investitsiya loyihalarini amalga oshirish markazi to‘g‘risidagi nizom 4-ilovaga muvofiq; O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirishi va ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizom 5-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizim tashkilotlari xodimlari mehnatiga haq to‘lash va ularni moddiy rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va uning tizimidagi byudjet tashkilotlari ro‘yxati hamda Suv xo‘jaligi vazirligining Suv xo‘jaligi loyihalarini amalga oshirishi departamenti tizimidagi “Suvqurilishinvest” davlat muassasalari ro‘yxati 7 va 7a-ilovalarga muvofiq;

“O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi a‘lochisi” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizom, ko‘krak nishoni va uning guvohnomasi tavsiflari 8, 8a va 8b-ilovalarga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi hamda uning tizimidagi byudjet tashkilotlarida xizmat avtotransport vositalarini birlashtirish me‘yorlari 9-ilovaga muvofiq;

“Termiz suv yo‘llari texnik uchastkasi”, “Xo‘jayli suv yo‘llari texnik uchastkasi” va “Cholish suv yo‘llari texnika bo‘limi” davlat muassasalarining moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash bo‘yicha 2024-2027-yillarga mo‘ljallangan chora-tadbirlar dasturi 10-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi; Belgilanishicha, 2025-yil 1-yanvardan boshlab:

davlat muassasalarini moliyalashtirish tegishli mahalliy byudjetlardan respublika byudjetiga o‘tkazilishi;

davlat muassasalarining xodimlariga O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Suv xo‘jaligi obyektlarini ekspluatatsiya qilish agentligi tizimidagi byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlar xodimlari uchun nazarda tutilgan mehnatga haq to‘lash va moddiy rag‘batlantirish shartlari tatbiq etilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligi va “Agrobank” ATBning “O‘zbekiston irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish” loyihasi bo‘yicha dala ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishi hamda zarur ma‘lumotlarni to‘plash bilan bog‘liq xarajatlarni “Agrobank” ATB hisobidan moliyalashtirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 11-ilovaga muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining 12-ilovaga muvofiq ayrim qarorlari o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblanganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Tuman “Suv etkazib berish xizmati” DM (I.Abdullaev), “Agrobank” ATB Mingbuloq tuman bo‘limi (A.Qo‘chqarov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-oktabrdagi 645-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov